

## 19-mavzu. LABORATORIYA ISHI: O'ZGARUVCHAN TOK ZANJIRIDA REZONANS HODISASINI O'RGANISH

**Ishning maqsadi.** O'zgaruvchan tok zanjirida kuchlanishlar rezonansi hodisasini o'rganish.

**Kerakli asboblar.** 1. O'zgaruvchan tok (tovush) generatori (*TG*).

2. Ferromagnit o'zakka ega bo'lgan induktiv g'altak ( $L=1$  H).

3. Sig'imi  $10 \mu\text{F}$  gacha o'zgaradigan kondensatorlar batareyasi.

4. Ikkita multimetrit.

5. Qarshiliklar to'plami.

6. Uzib-ulagich va ulovchi simlar.

**Ishning bajarilishi.** 3.22-rasmdagi chizma bo'yicha asboblarni ulab, zanjir yig'iladi.

1. *TG* dan chiqishda  $100$  Hz va  $10$  V bo'ladigan holga to'g'rilanadi.


2. Multimetrlarni o'zgaruvchan kuchlanishni o'lchaydigan va o'lchash dia-pazoni  $20$  V bo'lgan holatga o'tkaziladi va ularni parallel holda kondensatorga va g'altakka ulanadi.

3. Kalitni ulab, kondensatorga ( $U_C$ ) va g'altakka ( $U_L$ ) ulangan multimetrik o'sratishlari yozib olinadi. Bunda  $U_C > U_L$  bo'lishiga e'tibor beriladi.

4. Generator chiqishidagi o'zgaruvchan tok chastotasini  $10$  Hz dan oshirib borib,  $U_C$  va  $U_L$  lar yozib boriladi.

5. Tajribani  $U_C = U_L$  bo'lgunga qadar davom ettiriladi. Natijalari jadvalga yoziladi.

6.  $U_C = U_L$  shart bajariladigan hol uchun  $2\pi\nu L = \frac{1}{2\pi\nu C}$  dan zanjirning rezonans chastotasi hisoblanadi:  $\nu_r = \frac{1}{\sqrt{4\pi^2 LC}}$ . Hisoblab topilgan chastotaning qiymati tajribada aniqlangan chastota qiymati bilan solishtiriladi.



3.22-rasm.

Tajriba №	<i>TG</i> chastotasi, Hz	$U_C$ , V	$U_L$ , V
1.			
2.			

- 7\*. Tajriba yana chastotani orttirib takrorlanadi.
8. Kondensatordagi  $U_C$  va induktiv g'altakdagi  $U_L$  kuchlanishlarning generator chastotasiga bog'liqlik grafigi chiziladi.



1. *Induktivlik ortganda zanjirdagi tok kuchi oldin ortib, keyin kamaydi. Bunday o'zgarishning sababi nimada?*
2. *Sig'im ortganda zanjirdagi tok kuchi oldin ortib, keyin kamaydi. Bunday o'zgarishning sababi nimada?*
3. *Agar induktiv g'altak ichiga o'zak kiritila boshlaganda kondensatordagi, induktiv g'altakdagi va aktiv qarshilikdagi kuchlanish tushuvlari o'zgaradi. Sababi nimada?*